

**OG'IZ BO'SHLIG'NING SHILLIQ QAVATI KASALLIKLARI,  
STOMATITLAR**

**Bobomurotov Dustmuxammad Bobomurot o'g'li**  
*ООО Дентамед „QO'NG'ROT DENTAL-LAB” X.K*

**Anotatsiya:** *Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati, uning kasalliklari, kelib chiqish sabablari, tekshirish usullari, simptonlari, klassifikatsiyalari hamda patalogik jarayonlar. Stamatitlar sabablari, turlari, simptonlari va kechishi.*

**Kalit so'zlar:** *Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati, og'iz dahliz, xususuy og'iz bo'shlig'i, qattiq va yumshoq tanglay, shilliq qavat, shilliq osti qavati, mushak qavat, bazal qavat, tikansimon qavat, donador qavat, shox qavat, tashxislash, etiologik belgilar, stomatit, pufakchali dermatoz, yassi qizilcha, vensan stomatiti, streptokokli stomatit, piogen granulema, tuberkulezli stomatit, molochnitsa stomatiti, travmatik stomatitlar, dekubital yara, bediar aftasi. Og'iz bo'shlig'i ikki qisimdan iborat bo'lib ular og'iz dahliz va xususiy og'iz bo'shlig'i hisoblanadi. Dahliz qismi lunch va lab bilan chegaralangan bo'lib, xususiy qisimdan tishlar, alveolyar o'simta, milk bilan ajratiladi. Xususiy og'iz bo'shlig'inining tomonlaridan yumshoq va qattiq tanglay, tubini esa til ildizi tubi mushak deafragmasi tashkil qiladi. Og'iz bo'shlig'i maydoni kattalarda 215 mm kubni tashkil qilib, tishlatdan tashqari barcha sohalar shilliq qavat bilan qoplangan. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati inson organizimining bashqa shilliq qavatlaridan o'ziga hosligi bilan ajralib turadi. U fizik, kimyoviy, mikroblar ta'sirotlariga chidamlidir, regenrator xususiyati yuqori hisoblanadi. U tez tasirlanadi va tez regeneratorlanadi. Shilliq qavatning bu hususiyati uning tuzilishiga bog'liqdir.*

Og'iz bo'shlig'i asosan 3 qavatdan iborat.

1. Shilliq qavati
2. Shilliq osti qavati
3. Mushak qavati.

Og'iz bo'shlig'i qavati ko'p qavatli yassi epiteliy bilan qoplangan bo'lib, u uch yoki to'rtta qavatdan iborat bo'ladi. Chaynov bosimi tushadigan sohalarda esa bu milk va tanglay uch qavatidan iboratdur. Lab qizil hoshiyasi shilliq qavati to'rt qavatdan tashkil topgan bo'lib, bu yerda yaqqol darajada shakillanishin kuztishimiz mumkin.

1. Bazal qavat
2. Tikansimon qavat
3. Donador qavat
4. Shoh qavat.

Chuqur bo'limlarda bo'linuvchi hujayralar, donador qavatga yaqinlashgani sari yirik hujayralari kichrayib yassilashadi. Bazal qavat basal membranada yotuvchi kubsimon hujayradan iborat bo'ladi. Tikansimon qavat bir necha qavat joylashgan noto'g'ri shakildagi yirik hujayralardan tuzilgan bo'lib, o'zaro desmasomalar yordamida huddi tikanga o'xshab birikadi.

Donador qavat shox qavati ustida joylashib bir necha qavat joylashgan yassi, cho'zinchoq, ingichka hujayralardan tashkil topgan, protaplazmasida keratogialin donalarini tutadi va yadroga ega. Epiteliyning yuz-shox qavati olti qirrali shox tangachalardan tashkil topgan. Uning hujayrali membiranasi qalin, yadro saqlamaydi, hatto teri epidermiyasining shox qavatidan ham qalinroqdir. Faqat kaft va tovon epidermasidan tashqari. Og'iz bo'shlig'i hazim tizimining boshlang'ich qismi bo'lib, undagi o'zgarishlar barcha ichki azolarning holatidan dalolat beradi. Og'izni shilliq qavati doimo tashqi muxitni har xil omillari tasirida bo'ladi, shu jumladan issiq, sovuq, kimyoviy, nur, bakteryalar, virus, zamburug'lar va shunga o'xshashlar. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlari kasalliklariga stomatitlar, o'tkir gerpetik stomatitlar, og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining kandidamakozi (Molochnitsa), surinkali qaytalanuvchan aftoz stomatitlar va boshqalari misol bo'la oladi.

Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kun miqdorida gilikogen to'plash hususiyatiga ega. U lunch, yumshoq tanglay, og'iz bo'shlig'i tubida ko'proq kuzatiladi. Milk va qattiq tanglay shilliq qavatida esa yo'q yoki normada bo'ladi. Xulosa qilish mumkinki gilikogen shohlanmaydigan sohalarda yig'iladi, shuning uchun, uning shu sohalarda ko'payishi kuzatiladi. Ko'p hollarda bu omillar organizmni himoya darajasidan ustun kelishi, xar hil kasalliklarni chaqirishi mumkin. Og'iz bo'shlig'in shilliq qavati kasalliklariga uzoq vaqt faqat mahalliy jarayondek qaralgan. Lekin bu faqatgina mahalliy jarayon bo'libgina qolmay, balki umumiy jarayondir, chunki kasalikni kelib chiqish sabablari butun bir organizmning a'zo tizimlarining funksiyalariga, moddalar almashinuvining kechishiga, imun tizimining holatiga va yana ko'pgina omillarga bog'liqdir. Ushbu o'zgarishlar qon va qon ishlab chiqazuvchi azolarning yurak-qon tomirining, oshqozon va ichak, teri va tanosil va boshqa patologik holatlar birinchi bo'lib og'iz bo'shlig'ida namoyon bo'ladi. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarini tashxislashda eng muhim morfologik elementlarning turlarini aniqlash, og'iz bo'shlig'i shilliq qavatini funksional vazifalarini bilish, patologik jarayonlarni joylashishi va har bir kasallikning kilinik belgilarini bilish hisoblanadi. Shu sabab terapeft-stomatolik og'iz bo'shlig'in shilliq qavati kasalliklarini to'g'ri tashxislashni o'rganish uchun safdosh mutaxasisliklarni, etika va deantologiya asoslarini egallagan holda bemorlarning jismoniy va ruxiy azoblarini, ichtimoiy sharoitini va hokazolarni nazarga olib individuval yondoshishi lozim. Bunda asosiy va qo'shimcha tekshirish usullari o'tkazilib, bemorga kompleks davolash rejasi barcha maslahatlarni inobatga olgan holda tuziladi. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavat kasalliklarini etiologik belgilariga asosan klasifikatsiya qilish maqsadga muofiqdir .

Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklar klassifikatsiyasi: \

1. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati shikastlanishi.
2. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati infektion kasalliklardan yallig'lanishi.
3. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining spedsefik infeksiya natijasida yallig'lanishi.
4. Allergiya natijasida shilliq qavatning yallig'lanishi.
5. Dori moddalarini qabul qilish natijasida yuzaga keladigan stomatitlar.
6. Organizm turli xil umum somatik kasalliklarida og'iz bo'shlig'idagi yallig'lanishlar.
7. Til va lab shilliq qavati kasalliklari.

Stomatit bu og'iz bo'shlig'i shilliq qavati yallig'lanishi bo'lib, etiologiyasi va kilinik kechishi bo'yicha turli hildagi shilliq qavat kasalliklarini o'z ichiga oladi. Turli mikrob va viruslar tasirida og'iz shilliq pardasida turlicha klinik ko'rinishga ega bo'lgan stomatitlar kelib chiqishi mumkin. Bazi alergik hollarda og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida o'ziga hos o'zgarishlar ro'y berishi mumkin. Bunga Kvinke shishlari, allergik stomatit, turli shakildagi eksudativ eritma, surinkali qaytalanuvchi aftali yani chaqali stomatitni misol qilishimiz mumkin. Ko'pincha ayrim dori preparatlarini peroral qabul qilishda ular shilliq qavatdagi pardaga tez tasir etishlari mumkin.

Dermatovenerik kasalliklarning ( zaxim, gonoreya ) ayrim rivojlanish pallalari ham og'iz bo'shlig'i shilliq pardasida o'z izini qoldirishi mumkin. Ayniqsa teri dermatozining asosiy kilinik belgilari og'iz bo'shlig'ida ko'p uchraydi. Bular pufakchali dermatoz hamda yassi qizilcha. Og'iz shilliq qavati infeksion kasalliklariga virusli gepatit stomatiti, gripli stomatit, qizamiq davridagi stomatit toshmalar misol bo'la oladi. Og'iz shilliq pardasini butkul chirishi bilan kechuvchi vensan stomatiti bolalar sog'lig'i uchun o'ta haflı hisoblanadi. Bakterial infeksiya natijasida yuzaga kelgan streptokokli stomatit, piogen granulema yoki tuberkulezli stomatitlar ham jiddiy tus oluvchi kasalliklar hisoblanadi. Emizikli bolalar tilini ustki yuzasi bo'ylab kechuvchi molochnitsa nomli stomatitlar kandidoz kasalliklar turiga kiradi. Mazkur kandida-mog'or zamburug'lari bola ona sutini emib bo'lgach, og'iz bo'shlig'ida qolib ketgan sut qoldiqlarining achib, kislotali muhitni vujudga keltirilishi hisobiga yuzaga keladi. Shuning uchun, onalarga bolani emizib bo'lgach, bola og'zini choy sodasi suv bilan aralashtirilib tayyorlangan ishqoriy suyuqlik shimdirlilgan doka bilan artib tashlash tavsiya beriladi. Shikastlovchi omil harakteriga ko'ra mexanik, termik, kimyoviy ta'siridagi stomatitlar farqlanadi. Mexanik stomatitlar tasir qiluvchi omil davomiyligi, kuchi va organizim reaktivliligiga bog'liq hamda shilliq qavatda yallig'lanish o'zgarishlarini ko'rish mumkin. Gipermiya, shisht, qizarish, eroziya, yaralar shilliq qavatning funksiyasini chegaralanishga olib keladi. Shilliq qavatning travmatik shikastlanishi ko'p hollarda dekubital yara deb ataladi. Dekubital yaralarning hosil bo'lish sabablari xilma-xildir. Bularga chaqaloqlarda erta chiqqan yangi tishlarni qirrasi, yod moddalar: baliq qiltanog'i, tuxum va pista po'choqlari va boshqalar. Yana bir sababi vrachning qo'pol ishlashi yani noto'g'ri qo'yilgan plomba qirralarini lunchga ziyon berishi, og'iz bo'shlig'ini ko'rikdan o'tqazyotganda shpatel va boshqa asboblar orqali ziyon yetkazib qo'yish misol bo'la oladi. Chaqaloqda og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining o'ziga hos mexanik shikastlanishi bu bediar aftasi bo'lib, u kuchsiz, ko'pincha sun'iy ovqatlanuvchi, tez-tez kasal bo'lувchi bolalarda kuzatiladi. Afta shilliq qavat epiteliysining shikastlanish, yalliglanish morfologik elementi bo'lib, yumoloq yoki oval shakilda, qizil hoshiyali, yuzasini fibrinoz karash qoplagan bo'ladi. Unga xos xususiyati og'riq va qonashdir. Bednar aftasi yumshoq va qattiq tanglay chegarasida, smmetirik holda joylashgandir. Shikkastlanish bir tomonlama yoki ikki tomonlama bo'lishi mumkin. Bednar aftasi emizikli bolalarda dag'al so'rig'ichlar asorati natijasida kuzatilishi mumkin. Hulosa: bundan shulurni bilish mumkinki ko'pgina kasalliklar boshlang'ich alomatlarini og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlarida kechgan o'zgarishlar natijasida qaysi kasallikni boshlanayotganini yoki qaysi kasallik bolani bezovta qilayotganini aniqlash mumkin ekan. Bularni kelib chiqishiga sabab esa oddiy gigeyenik qoidalarga hamda to'g'ri ovqatlanish rejimiga riosa qilmaslik oqibatida yuzaga kelishi, insonlarni be'etiborligi

natijasida bunaqa kasalliklarni paydo bulishi achinarli albat. Bularni oldini olish uchun esa onalar bolalarni ovqatlantirishda gigeyenik qoidalarga rioya qilgan holda to'g'ri amalgamoshirishi kifoya hisoblandi. Travmatik stomatitlarga keladigan bo'lsak, stomatolik vrachning bemor bilan ishslashdagi hatosi hamda etiborsiz ovqatlantirishlar natijasi hisoblanar ekan. Bularni oldini olish uchun etiborli, sinchikovlik bilan ishslash hamda ovqatlanish qoidasiga to'g'ri amal qilish bunaqangi kasalliklarni kelib chiqishini oldini oladi degan fikirdaman.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Yakubova F.X „Asosiy stomatologik kasalliklar” o'quv qo'llanma Toshkent 2023.
2. Комилов Х. П. , Ибрагимова М. Х. , Мирахмедова Д. У. , Хамроева О. Ш. „Терапевтик стоматология. Огиз бушлиги шиллик пардаси касалликлари” кулланма Тошкент 2005.
3. <https://med24.uz> Kasalliklar ro'yxati, stomatit.